# Tarixiy manbashunoslik masalalariga bag'ishlangan respublika ilmiy seminari o'tkazildi

Joriy yil 10-sentyabr kuni O’zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tomonidan “Tarixiy manbashunoslikning bugungi kundagi dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy seminari o’tkazildi. Unda akademiklar, yetakchi manbashunos olim va mutaxassislar, yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi.




Seminarda tarixiy manbalarni tadqiq etish, manbashunoslikning hozirgi holati, istiqboldagi rejalarga bag’ishlangan ma’ruzalar tinglandi. Asosan Markaziy Osiyo tarixshunosligi va manbashunosligi, o’zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar jarayoni, me’moriy manbalardagi bitiklar, shuningdek, “Shajarayi turk” hamda “Zafarnoma” asarlari tadqiqiga alohida e’tibor qaratildi.

